



Zararli odatlarga qarshi kurashishda pedagogik immunitetni shakllantirishga oid xalqaro tajribalar

Nabiyeva Mohichehra Elyorjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazriyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

nabiyevamohichehra1@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-4521-0263>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zararli odatlarga qarshi kurashishda pedagogik immunitetni shakllantirishning xalqaro tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi xorijiy mamlakatlarda (Finlyandiya, Yaponiya, Kanada) sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ta'limiy dasturlarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-pedagogik, kontent va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pedagogik immunitetni shakllantirish erta profilaktika, oila-maktab hamkorligi va sog'lom qadriyatlarni ta'lim jarayoniga singdirish orqali samarali amalga oshiriladi. Xulosa sifatida, pedagogik immunitet yoshlarning sog'lom, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik immunitet, sog'lom turmush tarzi, profilaktika, xalqaro tajriba, oila-maktab hamkorligi, tarbiya, ijtimoiy kompetensiya, ma'naviy qadriyatlar, yoshlar, ta'lim tizimi.

Международный опыт формирования педагогического иммунитета в борьбе с вредными привычками

Аннотация. В статье анализируется международный опыт формирования педагогического иммунитета в борьбе с вредными привычками. Цель исследования изучить образовательные программы, направленные на формирование здорового образа жизни в таких странах, как Финляндия, Япония и Канада, и определить возможности их адаптации к национальной системе образования. В исследовании использованы сравнительно-педагогический, контентный и системный методы анализа. Результаты показывают, что педагогический иммунитет эффективно формируется через раннюю профилактику, сотрудничество семьи и школы, а также интеграцию здоровых ценностей в учебный процесс. В заключение подчеркивается, что педагогический иммунитет способствует формированию у молодежи ответственного, духовно зрелого и социально активного поведения.

Ключевые слова: педагогический иммунитет, здоровый образ жизни, профилактика, международный опыт, сотрудничество семьи и школы, воспитание, социальная компетентность, духовные ценности, молодежь, система образования..

International experience in developing pedagogical immunity in combating harmful habits

Annotation. This article analyzes the international experience in developing pedagogical immunity in combating harmful habits. The purpose of the study is to examine educational programs promoting a healthy lifestyle in countries such as Finland, Japan, and Canada, and to identify ways to adapt them to the national education system. The study employed comparative-pedagogical, content, and systemic analysis methods. The results show that pedagogical immunity is effectively developed through early prevention, collaboration between family and school, and the integration of healthy values into the educational process. The study concludes that pedagogical immunity fosters the development of socially active, spiritually mature, and responsible youth.

Keywords: pedagogical immunity, healthy lifestyle, prevention, international experience, family-school cooperation, education, upbringing, social competence, moral values, youth development.

KIRISH

Globalizatsiya, axborot texnologiyalari va raqamli madaniyatning jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Bu jarayon, bir tomondan, ta'lim sifatining oshishi, dunyoqarashning kengayishi va madaniyatlararo muloqotning kuchayishiga xizmat qilayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, yoshlar orasida zararli odatlarning tarqalishiga ham zamin yaratmoqda. Ayniqsa, chekish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, onlayn o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlarga haddan ziyod bog'lanish kabi hodisalar yosh avlodning jismoniy, ruhiy hamda ma'naviy salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Zararli odatlarning ildizlari ko'p jihatdan ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, axborot oqimi, psixologik beqarorlik va ma'naviy qadriyatlarining susayishi bilan bog'liq. Shu sababli, bu masalaga faqat tibbiy yoki ma'muriy yo'nalishda emas, balki pedagogik nuqtayi nazardan yondashish zarur. Chunki maktab va ta'lim muassasalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

Pedagogik immunitet tushunchasi shaxsning salbiy ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan qarshilik ko'rsatish, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va sog'lom turmush tarzini ongli ravishda tanlash qobiliyatini anglatadi. Bunday immunitet o'quvchi shaxsida nafaqat bilimlar, balki axloqiy me'yorlar, psixologik barqarorlik va irodaviy kuch orqali shakllanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik immunitetni shakllantirish uchun davlat siyosati, ta'lim mazmuni, o'qituvchilarning kasbiy mahorati va ijtimoiy hamkorlik tizimi o'zaro uyg'unlashgan holda ishlashi kerak. Masalan, Finlyandiya o'quvchilarning ruhiy farovonligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Wellbeing Education" konsepsiyasi, Yaponiyada axloqiy tarbiya va "Hayot saboqlari" dasturlari, Kanadada esa sog'lom turmush madaniyatini keng qamrab oluvchi "Comprehensive School Health" modeli keng qo'llanilmoqda.

Mazkur davlatlarning tajribasini o'rganish nafaqat profilaktik ta'limni rivojlantirish, balki O'zbekiston ta'lim tizimida yoshlarning ijtimoiy faolligi va ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois ushbu tadqiqotda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga tayanib, zararli odatlarga qarshi kurashishda pedagogik immunitetni shakllantirish yo'llari va shart-sharoitlari o'rganilib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zararli odatlarga qarshi kurashish va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), YUNESKO, hamda turli mamlakatlarning ta'lim vazirliklari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muhitida profilaktik faoliyatning o'rni alohida ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, pedagogik immunitet tushunchasi zamonaviy pedagogika nazariyasida shaxsning ijtimoiy va psixologik barqarorligini ifodalovchi yangi kategoriya sifatida qaralmoqda. Masalan, Finlyandiya olimlari o'quvchilarda "axloqiy kompetensiya" va "ma'naviy qaror qabul qilish" ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik immunitetning asosi sifatida e'tirof etadi[3]. Kanada tadqiqotchilari esa kompleks yondashuv – maktab, oila va jamoaning hamkorligini muhim deb biladi[2]. Yapon pedagoglari o'quvchilarning ichki intizomi va o'zini boshqarish qobiliyatini mustahkamlashni asosiy omil sifatida ta'kidlaydi[9].

Shuningdek, JSSTning "Global School Health Initiative" dasturi ta'lim jarayonida sog'lom turmush madaniyatini singdirish, zararli odatlarning oldini olish va o'quvchilarda psixologik bardoshlilikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni taklif etadi. YUNESKOning "Education for Health and Well-being" hujjatida esa sog'lom hayotga yo'naltirilgan ta'limni inson kapitalini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribada pedagogik immunitetni shakllantirish integrativ yondashuvga asoslanadi: bunda ta'lim, tarbiya, psixologiya, sog'liqni saqlash va ijtimoiy soha o'zaro uzviy bog'liq holda ishlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi xalqaro tajribalarni ilmiy tahlil qilish va uni O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bir qancha metodlarga tayandi. Masalan, qiyosiy-pedagogik tahlil metodiga ko'ra Finlyandiya, Yaponiya, Kanada va boshqa rivojlangan mamlakatlarda sog'lom turmush tarzi hamda zararli odatlarning oldini olishga qaratilgan ta'lim dasturlarini solishtirish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash.

Kontent tahlil metodiga ko'ra YUNESKO, JSST hamda xalqaro ilmiy nashrlarda keltirilgan konsepsiyalar, dasturlar va ilmiy maqolalarni tizimli o'rganish.

Tizimli yondashuvda esa xorijiy adabiyotlar, tajribalar va amaliy ishlar asosida pedagogik immunitetni shakllantirishning mexanizmlarini umumlashtirish nazarda tutiladi.

Analitik sintezga ko'ra olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, milliy ta'lim tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini baholash kabilarga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi-xorijiy tajribalarda pedagogik immunitetni shakllantirishning samarali usullarini aniqlash, ularni o'zbek ta'lim tizimiga moslashtirish hamda yoshlar orasida zararli odatlarga qarshi kurashishda profilaktik pedagogikaning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, pedagogik immunitetni shakllantirishda asosiy muvaffaqiyat omili bu erta profilaktika, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek sog'lom qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdan iborat.

Pedagogik immunitetning shakllanishi jarayoni har bir mamlakatda o'zining madaniy, ijtimoiy va tarbiyaviy an'alariga tayanadi, biroq ularning umumiy maqsadi yosh avlodni ongli, irodali va sog'lom hayotga yo'naltirishdir. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimining markaziy tamoyili "farovonlik ta'limi" (Wellbeing Education) konsepsiyasi asosida shakllangan bo'lib, bu dastur asosan o'quvchilarda emotsional barqarorlik, stressni boshqarish, hamdardlik va o'zini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quv jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyat yuritadi, u yerda o'quvchilar hayotiy muammolarni hal etish bo'yicha maslahat va treninglar oladilar. Finlyandiya ta'lim tizimi sog'lom turmush tarzini faqat jismoniy tarbiya bilan emas, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'laydi.

Yaponiya tajribasiga ko'ra, Yaponiya maktablarida "Axloqiy tarbiya" (Moral and Life Guidance) fani o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, jamoaviy fikrlash, irodaviy mustahkamlik va mas'uliyat hissini tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu tizimning o'ziga xos jihati har bir darsda hayotiy vaziyatlardan olingan axloqiy muammolar muhokama qilinadi, o'quvchilar esa mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Natijada yoshlar o'z xatti-harakatlarini ongli tarzda boshqarish, zararli odatlarga qarshi turish va to'g'ri hayotiy tanlov qilish qobiliyatini egallaydilar.

Shuningdek, Kanadada "Kompleks maktab sog'lomligi" (Comprehensive School Health) modeli keng joriy etilgan. Bu model o'qituvchi, ota-ona, sog'liqni saqlash mutaxassislari va jamoa a'zolarining faol hamkorligiga asoslanadi. Maktablarda sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlik va zararli odatlarning oldini olish bo'yicha muntazam dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv natijasida nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar ham sog'lom turmush madaniyatini ongli ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, Germaniya, Norvegiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda ham ta'lim tizimiga "psixologik immunitet" va "hayotiy kompetensiyalar" tushunchalari faol kiritilmoqda. Masalan, Germaniyada o'quvchilar uchun "Sog'lom fikrlash" dasturi joriy

Nabiyeva Mohichehra Elyorjon qizi

etilib, unda tanqidiy tafakkur, hissiy nazorat va muammolarni ijobiy hal etish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Yuqoridagi tahlillarnatijalariga ko'ra, pedagogik immunitet bu faqat zararli odatlar to'g'risida bilim berish emas, balki qadriyatlar, munosabatlar va ijtimoiy tajribani shakllantirish jarayonidir. U o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini ongli tanlash, axloqiy me'yorlarga amal qilish, ijtimoiy bosimlarga qarshi turish, psixologik barqarorlikni saqlashva hayot uchun mas'uliyat hissini rivojlantirish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda pedagogik immunitetni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ta'lim jarayonini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar, treninglar, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlari va ota-onalar bilan hamkorlik orqali tashkil etish eng samarali yo'l hisoblanadi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik immunitetni shakllantirish bu faqat zararli odatlarga qarshi kurashishning mexanik jarayoni emas, balki shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va psixologik barqarorligini ta'minlovchi kompleks pedagogik tizimdir. Pedagogik immunitet o'qituvchi, o'quvchi va ota-onaning uzviy hamkorligi natijasida shakllanadi. U insonning salbiy ta'sirlarga nisbatan mustahkam qarshilik ko'rsatish, ongli tanlov qilish, irodaviy barqarorlik va sog'lom turmush tarzini ongli ravishda tanlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xalqaro tajribalarda bu jarayon ko'pincha profilaktik pedagogika konsepsiyasi orqali amalga oshiriladi. Masalan, Finlyandiyada o'quvchilarning ruhiy salomatligi, stressni boshqarish va ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar mavjud. Yaponiyada o'quvchilarning o'zini anglash, axloqiy qaror qabul qilish va jamoaviy mas'uliyatni his etish ko'nikmalari tizimli tarzda o'qitiladi. Kanada va AQShda esa sog'lom turmush madaniyati fanlari orqali o'quvchilarga zararli odatlarning ijtimoiy oqibatlari haqida chuqur tushuncha beriladi.

Izlanish jarayonida quyidagi yo'nalishlar pedagogik immunitetni rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rsatish mumkin.

- O'quv dasturlariga sog'lom turmush madaniyati va psixologik barqarorlik mavzularini integratsiya qilish. Bu orqali o'quvchilar sog'lom qarorlar qabul qilish, stressni boshqarish va ijtimoiy bosimlarga qarshi turish ko'nikmalarini egallaydilar.

- O'qituvchilarni profilaktik pedagogika asoslariga tayyorlash ya'ni ular o'quvchilarning hissiy ehtiyojlarini aniqlash, ularni motivatsiya va ishonch orqali ijobiy yo'lga yo'naltirishni o'rganadilar.

- Maktab, oila va jamoat o'rtasidagi uzviy hamkorlik bo'lishi ya'ni xalqaro amaliyotda bu "uch tomonlama hamkorlik modeli" orqali amalga oshiriladi, bunda har bir tomon o'quvchilarning sog'lom ijtimoiy muhitda kamol topishiga mas'ul hisoblanadi.

- Psixologik xavfsiz muhit yaratish asosan har bir o'quvchining fikrini erkin bildirish, o'zini qadrlangan his qilish va ijobiy o'quv muhiti bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Milliy ta'lim tizimida bu tajribalardan foydalanish yoshlarning ijtimoiy immunitetini mustahkamlash, ularni zararli odatlardan, axborot xurujlaridan va salbiy ijtimoiy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik immunitetni rivojlantirish jarayoni ta'limning tarbiyaviy, ma'naviy va ruhiy jihatlarini birlashtirib, sog'lom, faol, mustaqil fikrlovchi avlodni shakllantirish uchun muhim poydevor yara oladi.

XULOSA

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zararli odatlarga qarshi kurashishda pedagogik immunitetni shakllantirish - bu faqatgina ma'rifiy targ'ibot yoki nazorat chorasi emas, balki shaxsning ongli ravishda sog'lom turmush tarzini tanlashiga asos yaratadigan kompleks pedagogik jarayondir. Ta'lim tizimida bu yondashuv tarbiyaviy, ma'naviy va psixologik omillarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik immunitet yoshlarni nafaqat zararli odatlardan saqlaydi, balki ularda bir qancha muhim fazilatlarni shakllantiradi. Mas’uliyat hissini oshiradi o’z harakati va tanlovi uchun javobgarlikni his etadi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi ya’ni atrofdagi axborot oqimida to’g’ri qaror qabul qilishni o’rganadi. Irodaviy barqarorlikni his qiladi asosan bosim, stress va ijtimoiy ta’sirlarga bardosh bera olish ko’nikmalari shakllanadi. Sog’lom turmush madaniyatini jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikni qadrlashni o’rganadi.

Xalqaro amaliyotdan ko’rinadiki, pedagogik immunitetni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, oila va jamoat tashkilotlari o’rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Finlyandiya, Yaponiya, Kanada kabi mamlakatlarda sog’lom turmush qadriyatlarini maktab dasturlariga chuqur singdirilgan bo’lib, bu yoshlarning ijtimoiy immunitetini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu kabi yondashuvlarni milliy ta’lim tizimida qo’llash o’z navbatida yoshlarni salbiy odatlar, axborot tahdidlari va ijtimoiy befarqlikdan himoya qilish imkonini beradi.

Pedagogik immunitetni shakllantirish bu kelajak avlodning ruhiy sog’lomligi, ma’naviy barkamolligi va ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini ta’minlovchi ustuvor yo’nalish hisoblanadi. Ushbu jarayonni tizimli tarzda yo’lga qo’yish orqali ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda sog’lom, barkamol va ma’naviy yetuk insonlarni tarbiyalashda muhim poydevor yarata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B.176.
2. Canadian Public Health Association (CPHA). Comprehensive Approach to Youth Health Promotion: School, Family, and Community Cooperation. – Ottawa: CPHA Publications, 2021. – P. 156.
3. Hietalahti, J., & Klemola, T. Moral and Spiritual Competence as the Foundation of Pedagogical Immunity. – Helsinki: University of Tampere Press, 2020. – P. 184.
4. Myudrik A.V. Социализация человека: учеб. пособие для студентов высш. уч. заведений / А.В. Myudrik. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2006. – С.304.
5. Nakamura K. Moral and Life Education in Japan: A Pedagogical Approach to Student Wellbeing. – Tokyo: Springer, 2019. – P. 175.
6. Qodirova F.M. Sog’lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari. – T.: O’qituvchi, 2019. – B.210.
7. Raximova N.N. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy immunitetni shakllantirishning nazariy asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – B.192.
8. Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2021. – P. 220.
9. Takahashi, M. Self-Discipline and Educational Resilience in Japanese Moral Education. – Tokyo: Nihon University Press, 2019. – P. 172.
10. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – P. 245.
11. World Health Organization (WHO). Health Promotion and Disease Prevention through Schools. – Geneva: WHO Press, 2021. – P. 198.
12. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – B.168.